UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Radjabov Sardor Baxtiyorovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.23552601

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda texnologik yondashuvga tayangan pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Tadbirkorlik kompetensiyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholovchi komponentlar) aniqlashtirilib, Yevropa Ittifoqining EntreComp modeli bilan qiyosiy tahlil qilingan. Motivatsion-diagnostik, axborot-tushunchaviy, loyiha-amaliy va refleksiv-baholovchi bosqichlardan iborat shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilib, har bir bosqichning maqsadi, metod va vositalari hamda kutilayotgan natijalari asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik kompetensiyasi, texnologik yondashuv, pedagogik texnologiya, umumiy o‘rta ta’lim, loyiha faoliyati, dizayn-fikrlash, moliyaviy savodxonlik, EntreComp, refleksiya, baholash mezonlari.*

Аннотация. *В статье раскрываются теоретико-методологические основы и педагогические механизмы формирования предпринимательских компетенций у учащихся общеобразовательных учреждений на основе технологического подхода. Уточнены содержание и структура предпринимательской компетенции (мотивационно-ценностный, когнитивный, деятельностно-практический и рефлексивно-оценочный компоненты), проведён сравнительный анализ с европейской моделью EntreComp. Разработана технология формирования, включающая мотивационно-диагностический, информационно-понятийный, проектно-практический и рефлексивно-оценочный этапы; обоснованы цели, методы, средства и ожидаемые результаты каждого этапа.*

Ключевые слова: *предпринимательская компетенция, технологический подход, педагогическая технология, общее среднее образование, проектная деятельность, дизайн-мышление, финансовая грамотность, EntreComp, рефлексия, критерии оценки.*

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations and the pedagogical mechanisms of developing entrepreneurial competences in general secondary school students on the basis of a technological approach. The content and structure of entrepreneurial competence (motivational-value, cognitive, activity-practical and reflective-evaluative components) are specified and compared with the European EntreComp framework. A formation technology is designed that comprises motivational-diagnostic, informational-*

conceptual, project-practical and reflective-evaluative stages, and the aims, methods, tools and expected outcomes of each stage are substantiated.

Keywords: *entrepreneurial competence, technological approach, educational technology, general secondary education, project-based learning, design thinking, financial literacy, EntreComp, reflection, assessment criteria.*

XXI asrda jamiyat taraqqiyoti va mehnat bozoridagi tub o‘zgarishlar ta’lim natijalariga qo‘yiladigan talablarni ham yangilamoqda. Raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirish va global raqobat sharoitida bitiruvchidan nafaqat muayyan bilimlar majmuasini egallash, balki imkoniyatlarni ko‘ra bilish, tashabbus ko‘rsatish, resurslarni oqilona boshqarish, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish, o‘z g‘oyasini amaliy natijaga aylantira olish talab etilmoqda. Shu bois tadbirkorlik kompetensiyasi xalqaro ta’lim siyosatida umrbod ta’lim uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilgan: Yevropa Ittifoqi Kengashining 2018-yil 22-maydagi tavsiyanomasida u sakkiz tayanch kompetensiya qatoriga kiritilgan, OECD ning “Ta’lim 2030” konsepsiyasida esa o‘quvchining yangi qadriyat yaratish, ziddiyatlarni muvozanatlash va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati kelajak ta’limining asosiy maqsadlari sifatida belgilangan.

Biroq maktab amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikka oid mazmun asosan texnologiya, iqtisodiy mazmundagi fanlar va ayrim sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda parcha-parcha, axborot berish shaklida taqdim etilmoqda. O‘quvchilar “biznes”, “foyda”, “bozor” kabi tushunchalarni bilsalar-da, real muammoni aniqlash, g‘oya ishlab chiqish, uni sinovdan o‘tkazish va natijani tahlil qilish tajribasiga ega bo‘lmayapti. Boshqacha aytganda, tadbirkorlik haqida o‘qitish ustunlik qilib, tadbirkorlik orqali o‘qitish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Mazkur muammoni hal etish tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonini maqsadi diagnostik belgilangan, bosqichlari aniq, natijasi kafolatlangan va takrorlanuvchan tizim ya’ni pedagogik texnologiya sifatida loyihalashni taqozo etadi.

Kompetensiya tushunchasi pedagogik adabiyotlarda shaxsning bilim, ko‘nikma, tajriba va qadriyatlarini muayyan faoliyat sohasida samarali qo‘llashga tayyorligi va qobiliyati sifatida talqin etiladi. A.V.Xutorskoy tayanch kompetensiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, ularni o‘quvchining real voqelik obyektlariga nisbatan faoliyat tajribasi bilan bog‘laydi. I.A.Zimnyaya esa kompetensiyani ta’lim natijasining yangi paradigmasi sifatida baholab, uning motivatsion, kognitiv, xulq-atvor va qadriyat-ma’noviy jihatlarini ajratadi. Bu yondashuvlar tadbirkorlik kompetensiyasini ham faqat iqtisodiy bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning integrativ sifati sifatida tadqiq etishga asos bo‘ladi.

Xalqaro miqyosda eng keng qo‘llanilayotgan model Yevropa Komissiyasining Qo‘shma tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan EntreComp

ramkasidir. Unda tadbirkorlik qadriyat yaratish maqsadida imkoniyat va g‘oyalarga asoslanib harakat qilish sifatida ta’riflanadi hamda kompetensiya uch soha bo‘yicha tasniflanadi: “G‘oyalar va imkoniyatlar”, “Resurslar” va “Harakatga o‘tish”. Har bir sohada beshtadan, jami 15 ta kompetensiya (imkoniyatni ko‘rish, ijodkorlik, istiqbolni ko‘ra bilish, g‘oyalarni baholash, axloqiy va barqaror fikrlash, o‘zini anglash va o‘ziga ishonch, motivatsiya va qat'iyat, resurslarni safarbar etish, moliyaviy va iqtisodiy savodxonlik, boshqalarni jalb qilish, tashabbus ko‘rsatish, rejalashtirish va boshqarish, noaniqlik va tavakkalchilik bilan ishlash, jamoa bilan ishlash, tajribadan o‘rganish) ajratiladi. Muhim jihati shundaki, EntreComp tadbirkorlikni faqat foyda keltiruvchi biznes bilan cheklamay, ijtimoiy, madaniy va ekologik qadriyat yaratishni ham qamrab oladi. Bu umumta’lim maktabi uchun nihoyatda muhim: o‘quvchi uchun "qadriyat" sinfdagi muammoni hal qilish, mahalladagi ehtiyojga javob berish yoki maktab yarmarkasida mahsulot taqdim etish bo‘lishi mumkin.

M.Lackéus tadbirkorlik ta’limining uch shaklini farqlaydi: tadbirkorlik *haqida* (nazariy bilim berish), tadbirkorlik *uchun* (kelajakdagi tadbirkorni tayyorlash) va tadbirkorlik *orqali* (o‘quvchini real qadriyat yaratish jarayoniga jalb etish) o‘qitish [10]. A.Gibb ham an'anaviy "biznes-reja yozish"ga asoslangan ta’lim tadbirkorlik xulq-atvorini shakllantira olmasligini ta’kidlab, noaniqlik va murakkablik sharoitida o‘rganishga asoslangan yangi paradigmani taklif etadi [12]. A.Fayolle va B.Gailly tadqiqoti esa tadbirkorlik ta’limining o‘quvchilar munosabati va niyatiga ta’siri, ayniqsa, ilgari bunday tajribaga ega bo‘lmaganlarda yuqori bo‘lishini ko‘rsatgan [13]. Bu xulosalar maktab bosqichida tadbirkorlik ta’limini erta va tajribaga asoslangan holda boshlash zarurligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi yondashuvlarni umumlashtirib, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchisining tadbirkorlik kompetensiyasini biz quyidagicha ta’riflaymiz: bu – o‘quvchining atrof-muhitdagi ehtiyoj va muammolarni imkoniyat sifatida ko‘ra bilishi, ularni hal etishga qaratilgan g‘oyalarni ijodiy ishlab chiqishi, mavjud resurslarni rejalashtirib safarbar etishi, jamoa bilan hamkorlikda g‘oyani amaliy natijaga aylantirishi va o‘z faoliyatini axloqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan baholay olishini ta’minlovchi motivatsiya, bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning integrativ birligidir. Kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

O‘quvchilar tadbirkorlik kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi

Komponent	Mazmuni	EntreComp bilan muvofiqligi
Motivatsion-qadriyatli	Tashabbuskorlikka ichki ehtiyoj; mehnatga, halollik va ijtimoiy mas'uliyatga ijobiy munosabat; o‘ziga ishonch; muvaffaqiyatsizlikka chidamlilik	Motivatsiya va qat'iyat; o‘zini anglash va o‘ziga ishonch; axloqiy va barqaror fikrlash

Komponent	Mazmuni	EntreComp bilan muvofiqligi
Kognitiv	Bozor, talab va taklif, xarajat, daromad, foyda, raqobat, iste'molchi, risk tushunchalari; moliyaviy savodxonlik asoslari; biznes-g‘oya modelining tuzilishi	Moliyaviy va iqtisodiy savodxonlik; g‘oyalarni baholash
Faoliyatli-amaliy	Muammoni aniqlash, g‘oya generatsiyasi, prototip yaratish, oddiy hisob-kitob va rejalashtirish, taqdimot qilish, jamoada ishlash, raqamli vositalardan foydalanish	Imkoniyatni ko‘rish; ijodkorlik; resurslarni safarbar etish; rejalashtirish; jamoa bilan ishlash
Refleksiv-baholovchi	O‘z faoliyati natijasini tahlil qilish, xatolardan saboq chiqarish, qarorlar oqibatini baholash, keyingi harakatni tuzatish	Tajribadan o‘rganish; noaniqlik va tavakkalchilik bilan ishlash

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan tuzilma EntreComp ramkasining barcha uch sohasini qamrab oladi, ammo uni maktab o‘quvchisining yosh xususiyatlari va milliy ta’lim an'analariga moslashtiradi. Xususan, motivatsion-qadriyatli komponentga halollik, mehnatsevarlik, ota-bobolarimizning hunarmandchilik va savdo madaniyatidagi “halol luqma” tamoyili kabi milliy qadriyatlar kiritilganligi tadbirkorlik tarbiyasini ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Texnologik yondashuv ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, uning har bir bosqichini maqsad va natija bilan aniq bog‘lash hamda kafolatlangan natijaga erishishni nazarda tutadi. V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotda amalga oshiriladigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida ta’riflab, uning asosiy belgisi sifatida maqsadning diagnostik qo‘yilishi va natijaning obyektiv nazorat qilinishini ko‘rsatadi [14]. G.K.Selevko pedagogik texnologiyaning konseptuallik, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik va takrorlanuvchanlik mezonlarini ajratadi [19]. Mahalliy olimlardan O‘.Q.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslarini [8], J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonov ilg‘or pedagogik texnologiyalarning tasnifi va qo‘llanish shartlarini [7], N.S.Saidahmedov yangi pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyotini [6], N.A.Muslimov va hammualliflar esa innovatsion ta’lim texnologiyalarini loyihalash masalalarini [5] tadqiq etganlar. R.Ishmuhamedov va boshqalar interfaol metodlarni o‘quvchi faolligini oshiruvchi texnologik vosita sifatida tavsiflaydi [9].

Tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi uchun ushbu umumiy talablar quyidagi uch nazariy manba bilan to‘ldiriladi. D.Kolbning tajribaviy o‘rganish nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra o‘rganish aniq tajriba, refleksiv kuzatish, abstrakt tushunchalashtirish va faol tajriba-sinov bosqichlaridan iborat sikl

sifatida kechadi [20]. Tadbirkorlik faoliyati aynan shu siklga mos keladi: o‘quvchi g‘oyani sinab ko‘radi, natijani tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va yangi qadamni rejalashtiradi. S.Sarasvathyning effektuatsiya nazariyasi [21]. Tajribali tadbirkorlar oldindan aniq maqsad qo‘yib, unga resurs izlashdan ko‘ra, qo‘ldagi mavjud vositalardan (“kimman, nimani bilaman, kimlarni bilaman”) boshlab, yo‘qotish mumkin bo‘lgan chegarani belgilab, hamkorlar bilan birgalikda imkoniyatlarni yaratadilar. Bu tamoyil maktab sharoitida ayniqsa qimmatli: o‘quvchi katta sarmoyasiz, o‘z bilimi, sinfdoshlari va mahalla resurslari asosida kichik qadriyat yaratishni o‘rganadi. Dizayn-fikrlash metodologiyasi bo‘lib, u empatiya, muammoni aniqlash, g‘oya generatsiyasi, prototiplash va sinovdan o‘tkazish bosqichlari orqali iste'molchiga yo‘naltirilgan yechim yaratishni o‘rgatadi.

Shunday qilib, texnologik yondashuv doirasida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish quyidagi tamoyillarga tayanadi: diagnostik maqsad qo‘yish (har bir bosqich natijasi o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarda ifodalanadi); tajribaga asoslanganlik (bilim real yoki modellashtirilgan tadbirkorlik vaziyatida egallanadi); bosqichma-bosqichlik va uzluksizlik (5–11-sinflar kesimida murakkablashib boruvchi mazmun); fanlararo integratsiya (matematika, informatika, texnologiya, ona tili, tarix fanlari imkoniyatlaridan foydalanish); ijtimoiy hamkorlik (oila, mahalla, mahalliy tadbirkorlar bilan aloqa); refleksivlik (har bir faoliyat siklining tahlil bilan yakunlanishi).

Yuqoridagi tamoyillar asosida to‘rt bosqichli shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Uning mazmuni 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasining bosqichlari

Bosqich	Maqsadi	Metod va vositalar	Kutilayotgan natija
I. Motivatsion-diagnostik	Boshlang‘ich darajani aniqlash, tadbirkorlikka qiziqish va ichki motivatsiyani uyg‘otish	Diagnostik so‘rovnoma va o‘z-o‘zini baholash varaqasi; "Mening orzuim – mening ishim" suhbati; muvaffaqiyatli mahalliy tadbirkor bilan uchrashuv; "Imkoniyatlar xaritasi"	O‘quvchilarning individual profili tuzilgan; tadbirkorlikka ijobiy munosabat shakllangan
II. Axborot-tushunchaviy	Tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikka oid tayanch	Keys-stadi; "Klaster", "Insert", "Venn diagrammasi"; ta’limiy o‘yinlar	O‘quvchi asosiy iqtisodiy tushunchalarni izohlaydi va oddiy

Bosqich	Maqsadi	Metod va vositalar	Kutilayotgan natija
	tushunchalarni tizimli egallash	("Bozor", "Byudjet"); onlayn simulyatorlar va interaktiv testlar	hisob-kitoblarni bajaradi
III. Loyiha-amaliy	G‘oyani tanlash, ishlab chiqish va amaliy sinovdan o‘tkazish	Dizayn-fikrlash sikli; "Biznes-g‘oya kanvasi"; "Mini-kompaniya" loyihasi; maktab yarmarkasi; raqamli vositalar (elektron jadval, grafik dizayn va taqdimot dasturlari)	Jamoaviy loyiha va mahsulot/xizmat prototipi yaratilgan, xarajat-daromad hisobi tuzilgan, taqdimot o‘tkazilgan
IV. Refleksiv-baholovchi	Natijalarni tahlil qilish, yutuq va xatolardan saboq chiqarish, keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilash	Loyiha himoyasi; portfolio; rubrika asosida o‘zaro va o‘z-o‘zini baholash; "Nima ishladi? Nima ishlamadi? Endi nima qilamiz?" refleksiya texnikasi	Kompetensiya darajasi qayta o‘lchangan, individual rivojlanish rejasi tuzilgan

Motivatsion-diagnostik bosqichda asosiy e’tibor o‘quvchining shaxsiy ma’no va qiziqishlarini anglashiga qaratiladi. Diagnostik so‘rovnoma va o‘z-o‘zini baholash varaqasi 1-jadvaldagi to‘rt komponent bo‘yicha boshlang‘ich holatni aniqlash imkonini beradi. “Imkoniyatlar xaritasi” mashg‘ulotida o‘quvchilar o‘z maktabi, mahallasi va oilasidagi kundalik muammolarni (masalan, maktab oshxonasidagi navbat, eskirgan sport anjomlari, keksalarga yordam ehtiyoji) qayd etadi va ularni "kimdir hal qilsa, qadriyat yaratiladigan imkoniyat" sifatida qayta talqin qiladi. Mahalliy tadbirkor ayniqsa, shu maktab bitiruvchisi bilan uchrashuv tadbirkorlikni o‘quvchi uchun yaqin va erishish mumkin bo‘lgan yo‘lga aylantiradi.

Axborot-tushunchaviy bosqichda tadbirkorlikka oid tayanch tushunchalar quruq ta’rif shaklida emas, balki tanish hayotiy vaziyatlar orqali o‘zlashtiriladi. Masalan, "Bozor" ta’limiy o‘yinida o‘quvchilar xaridor va sotuvchi rollarida talab va taklif o‘zgarishining narxga ta’sirini amalda kuzatadi; “Oila byudjeti” topshirig‘ida daromad va xarajatlarni rejalashtirishni, zarur va istalgan xaridlarni farqlashni o‘rganadi. Keys-stadi uchun o‘zbek tadbirkorlari, hunarmandlar va oilaviy biznes tajribasidan olingan vaziyatlar tanlanadi. Bu bosqichda matematika (foiz, nisbat, diagramma), informatika (elektron jadval) va tarix (Buyuk Ipak yo‘li savdo madaniyati) fanlari bilan integratsiya ta’minlanadi.

Loyiha-amaliy bosqich texnologiyaning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘quvchilar 4–5 kishilik jamoalarga bo‘linib, birinchi bosqichda aniqlangan muammolardan birini tanlaydi va dizayn-fikrlash sikli bo‘yicha ishlaydi: muammo egasi bilan suhbat orqali uning ehtiyojini o‘rganadi (empatiya), muammoni aniq ifodalaydi, “aqliy hujum” orqali g‘oyalar yaratadi, eng maqbulini tanlab, oddiy prototip tayyorlaydi va uni potensial iste'molchilarda sinab ko‘radi. G‘oya “Biznes-g‘oya kanvasi” Lean Canvas modelining o‘quvchilar uchun soddalashtirilgan varianti yordamida tizimlashtiriladi: muammo, yechim, iste'molchi, qadriyat taklifi, zarur resurslar, xarajatlar va daromad manbalari. Effektuatsiya tamoyiliga ko‘ra jamoa avval “qo‘limizda nima bor?” savoliga javob beradi va “yo‘qotishga tayyor bo‘lgan” chegarani (vaqt, minimal mablag‘, materiallar) belgilaydi. Bosqich maktab yarmarkasi yoki “Startap kuni” tadbirida mahsulot/xizmat taqdimoti bilan yakunlanadi; olingan daromad shaffof hisob qilinib, bir qismi xayriya yoki sinf ehtiyojlariga yo‘naltirilishi o‘quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalaydi.

Raqamli vositalar bu bosqichda muhim o‘rin tutadi: elektron jadvallar yordamida xarajat-daromad hisobi va zararsizlik nuqtasi aniqlanadi, grafik dizayn dasturlarida logotip, qadoq va reklama materiallari tayyorlanadi, onlayn so‘rovnoma platformalari orqali iste'molchilar fikri o‘rganiladi, ijtimoiy tarmoqlarda maktab sahifasi orqali mahsulot taqdimoti amalga oshiriladi. Bu tadbirkorlik kompetensiyasini raqamli savodxonlik bilan uyg‘un rivojlantirish imkonini beradi.

Refleksiv-baholovchi bosqichda jamoalar loyihani himoya qiladi, natijalar oldindan e'lon qilingan rubrika asosida baholanadi. Muhim jihat shundaki, baholash faqat moliyaviy natijaga emas, balki jarayonning sifatiga muammoni to‘g‘ri tanlash, iste'molchini o‘rganish, jamoaviy ish, xatolardan saboq chiqarishga qaratiladi. Muvaffaqiyatsiz loyiha ham, agar jamoa uning sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, asosli xulosa chiqara olsa, yuqori baholanishi mumkin. Bu o‘quvchilarda tadbirkorlik uchun muhim bo‘lgan xatoga nisbatan konstruktiv munosabat va qat'iyatni shakllantiradi.

Texnologiya o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashtiriladi: 5–7-sinflarda u asosan o‘yin, ijodiy topshiriq va qisqa muddatli mini-loyihalar shaklida; 8–9-sinflarda chorak davomida amalga oshiriladigan jamoaviy loyihalar va "Mini-kompaniya" ko‘rinishida; 10–11-sinflarda esa kasbiy yo‘naltirish bilan uyg‘unlashgan startap-loyiha, biznes-reja tuzish va mahalliy tadbirkorlar mentorligidagi amaliyot shaklida tashkil etiladi.

O‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasiga mos mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Tadbirkorlik kompetensiyasining shakllanganligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	Ko‘rsatkichlar	Darajalar tavsifi
Motivatsion	Tadbirkorlikka qiziqish; tashabbus ko‘rsatish chastotasi; o‘ziga ishonch; ijtimoiy mas'uliyat	**Yuqori:** mustaqil tashabbus ko‘rsatadi, boshqalarni ergashtiradi. **O‘rta:** topshiriq berilganda faol ishlaydi. **Past:** tashqi rag‘batsiz faollik ko‘rsatmaydi.
Kognitiv	Tayanch iqtisodiy tushunchalarni bilish; moliyaviy hisob-kitob; biznes-g‘oya tuzilmasini tushunish	**Yuqori:** tushunchalarni yangi vaziyatda qo‘llaydi. **O‘rta:** tushunchalarni izohlaydi, namuna asosida qo‘llaydi. **Past:** tushunchalarni yuzaki biladi.
Faoliyatli	Muammoni aniqlash; g‘oya yaratish; rejalashtirish; jamoada ishlash; taqdimot	**Yuqori:** loyihani to‘liq sikl bo‘yicha mustaqil olib boradi. **O‘rta:** o‘qituvchi yordamida loyiha bosqichlarini bajaradi. **Past:** jamoaviy ishda passiv ishtirok etadi.
Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish; xatolardan xulosa chiqarish; keyingi harakatni tuzatish	**Yuqori:** asosli tahlil qiladi, takomillashtirish rejasini tuzadi. **O‘rta:** yutuq va kamchiliklarni qisman anglaydi. **Past:** natijani tahlil qila olmaydi.

Baholash vositalari sifatida diagnostik so‘rovnoma va testlar (kognitiv mezon), kuzatish varaqalari va loyiha rubrikalari (faoliyatli mezon), o‘z-o‘zini baholash anketalari va refleksiv kundaliklar (motivatsion va refleksiv mezonlar), shuningdek, o‘quvchining tadbirkorlik portfoliosi tavsiya etiladi. Portfolioda o‘quvchi ishtirok etgan loyihalar, biznes-g‘oya kanvaslari, hisob-kitoblar, taqdimotlar va refleksiv yozuvlar jamlanib, kompetensiyaning dinamik rivojini kuzatish imkonini beradi. Natijalarni EntreComp ramkasidagi rivojlanish darajalari (“kashf etish”, “o‘rganish”, “tajriba qilish”) bilan solishtirish esa xalqaro qiyosiylikni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish,

tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqil qaror qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur jarayonda tadbirkorlikni faqat nazariy bilimlar asosida o‘rgatish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarni real hayotiy muammolarni aniqlash, innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish, loyihalarni amalga oshirish va natijalarni tahlil qilishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, EntreComp ramkasi, tajribaviy o‘rganish, effektuatsiya va dizayn-fikrlash yondashuvlarini uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqilgan to‘rt bosqichli pedagogik texnologiya tadbirkorlik kompetensiyasining motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy hamda refleksiv-baholovchi komponentlarini izchil rivojlantirish imkonini beradi. Texnologiyaning diagnostik maqsadga yo‘naltirilganligi, bosqichma-bosqichligi, fanlararo integratsiyasi, raqamli vositalardan foydalanish va ijtimoiy hamkorlikka asoslanganligi uning amaliy ahamiyatini oshiradi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan mini-loyihalar, jamoaviy faoliyat, maktab yarmarkalari va startap tashabbuslari orqali ularning tadbirkorlik tajribasi kengayib, o‘z g‘oyalarini amaliy natijaga aylantirish qobiliyati rivojlanadi. Taklif etilgan mezon va ko‘rsatkichlar asosida kompetensiyaning shakllanganlik darajasini muntazam baholash esa ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlash, individual rivojlanish dinamikasini kuzatish va pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020, 03/20/637/1313.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "'O‘zbekiston – 2030' strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son.

5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.

6. Saidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.

7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.

8. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.

9. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.

10. Lackéus M. Entrepreneurship in Education: What, Why, When, How. Entrepreneurship 360 Background Paper. – Paris: OECD, 2015. – 45 p.

11. Bacigalupo M., Kampylis P., Punie Y., Van den Brande G. EntreComp: The Entrepreneurship Competence Framework. – Luxembourg: Publication Office of the European Union, 2016. – 36 p.

12. Gibb A. In pursuit of a new 'enterprise' and 'entrepreneurship' paradigm for learning: creative destruction, new values, new ways of doing things and new combinations of knowledge // International Journal of Management Reviews. – 2002. – Vol. 4, No. 3. – P. 233–269.

13. Fayolle A., Gailly B. The impact of entrepreneurship education on entrepreneurial attitudes and intention: hysteresis and persistence // Journal of Small Business Management. – 2015. – Vol. 53, No. 1. – P. 75–93.

14. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

15. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

16. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.

17. Council Recommendation of 22 May 2018 on key competences for lifelong learning (2018/C 189/01) // Official Journal of the European Union. – 2018. – C 189. – P. 1–13.

18. OECD. OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. A Series of Concept Notes. – Paris: OECD Publishing, 2019.

19. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.

20. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.

21. Sarasvathy S.D. Effectuation: Elements of Entrepreneurial Expertise. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2008. – 368 p.